

Sportga hamroh va hamroz ustozlar zavqi



10.01.2023

Sportga hamroh va hamroz ustozlar zavqi

Tan sihatligi, fan va ta'lif sifati uyg'unlashgandagina vatan taraqqiyoti haqida so'z yarashadi. Jismonan sog'lom va intellektual jihatdan yetuk jamoalar mamlakatimizning istiqbolini belgilashi tayin. Shunday ekan, ta'lif jarayoniga e'tibor yuqori bo'lgani kabi Sportga munosabat ham ta'lif muassasamizda alohida ahamiyat kasb etadi. Qishki ta'til paytida professor o'qituvchilar hamda ishchi xodimlar o'rtasida spartakiadani tashkil etish an'ana tusini olgan. "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetimizda 4-9 yanvar kunlari "YANGI YILNI SPORT BILAN BOSHLANG" shiori ostida o'tkazilgan "REKTOR KUBOGI-2023" an'anaviy spartakiadasi jamoamiz xotirasida taassurotlarga boyligi hamda zavqu shavqi bilan muhrlanishi aniq. Bu galgisi universitetimiz jamoasining ko'pchilik qismi faol ishtirok etgani bilan xarakterlanib turdi. Musobaqa umid, ishonch va natijalari bilan qiziqarlidir.



Bugun universitetimizning sport zalida musobaqa qatnashchilarini taqdirlash tadbiri bo'lib o'tdi. O'zlarining g'ayrat-shijoati va sport musobaqalariga bo'lgan qiziqishlari bilan alohida ajralib turgan fakultetlar hamda rektorat terma jamoalari bir safga tizilib turnaqator bo'lib turishdi. Tantanavor musiqa sadolari ostida universitetimiz rektori, professor Mirzaev Bahodir Suyunovichga tabrik uchun so'z berildi. Rektor barchani yangi yil boshidagi jamoaning ilk ommaviy tadbiri, sport musobaqasidagi ishtiroki va g'alabalari bilan samimiy qutladi. Bu tadbir o'quv yili oxirigacha barchaga o'ziga xos ko'tarinki kayfiyat va motivatsiya bergeniga shubha yo'qligini e'tirof etdi. Bu an'anaviy musobaqani yilda bir marta emas balki, ikki marta qishda va yozda ham tashkil etilishini maqsadga muvofiq ekanini ta'kidladi. Yozda tashkil etiladigan musobaqa rahmatlik ustozimiz Umurzakov O'ktam Pardaevichga bag'ishlangan xotira turniri bo'lib uni an'anaviy tarzda har yili 14-20 avgust kunlariga belgilash zarurligini uqtirdi.



So'ngra prorektor Choriev Ruzimurat Kungratovich musobaqa natijalarini e'lon qilib, barchani tabrikladi. Musobaqa natijalari quyidagi yo'sinda bo'ldi.

Quvnoq startlar (ayollar jamoasi)

- 1-o'rinni QXM fakulteti terma jamoasi
- 2-o'rinni QSXET fakulteti terma jamoasi
- 3-o'rinni YeRB fakulteti terma jamoasi egalladi.

Voleybol (ayollar jamoasi)

- 1-o'rinni QXM fakulteti terma jamoasi
- 2-o'rinni Rektorat terma jamoasi
- 3-o'rinni GIM fakulteti terma jamoasi ishg'ol etdi.



Stol-tennis (ayollar jamoasi)

- 1-o'rinni QXM fakultetidan Xatamqulova Husnora,
- 2-o'rinni QXM fakultetidan Sulyukova Larisa,

3-o'rinni GM fakultetidan Axrarova Dilbarxonlar qo'lga kiritishdi.

Shaxmat bo'yicha (ayollar jamoasi)

1-o'rinni SXTEB fakultetidan Ziyaeva Shulpan

2-o'rinni QXM fakultetidan Abdullaeva Olya

3-o'rinni QXM fakultetidan Sulyukova Larisa zabit etdi.

Shashka bo'yicha (ayollar jamoasi)

1-o'rin GM fakultetidan Axrarova Dilbarxonga

2-o'rin QXM fakultetidan Abduraxmonovaga

3-o'rin YeRB fakulteti Xayitova Azizaga nasib etdi.



Stol-tennisi (erkaklar jamoasi)

1-o'rinni Ishchanov Javlon GM fakulteti jamoasi

2-o'rinni Bo'bo'kulov Shonazar YeRB fakulteti jamoasi

3-o'rinni Baratov Ma'rufjon Rektorat jamoasi egalladi.

Shaxmat (erkaklar jamoasi)

1-o'rinni Berdiev Mustafo (GTK fakulteti jamoasi)

2-o'rinni Raxmonov Kosim (ERB fakulteti jamoasi)

3-o'rinni Alijanov Jabbor (KXM fakulteti jamoasi) ishg'ol etdi.

Shashka (erkaklar jamoasi)

1-o'rinni Ne'matov Sultonmurod Rektorat jamoasi

2-o'rinni Abdiramanov Rashid YeRB fakulteti jamoasi

3-o'rinni Yestekov Aktalek Rektorat jamoasi egalladi.



Arqon tortish (erkaklar jamoasi)

1-o'rinni - QSXETfakulteti jamoasi

2-o'rinni - QXM fakulteti jamoasi

3-o'rinni - GIM fakulteti jamoasi zabit etdi.

Voleybol (erkaklar jamoasi)

1-o'rinni - GIM fakulteti terma jamoasi

2-o'rinni - QXM fakulteti terma jamoasi

3-o'rinni - GM fakulteti terma jamoasi egalladi.

Mini-futbol (erkaklar jamoasi)

1-o'rinni - GM fakulteti terma jamoasi

- 2-o'rinni - YeRB fakulteti terma jamoasi
 3-o'rinni - QSXET fakulteti terma jamoasi egalladi.

NOMINATSIYALAR

Eng yoshi ulug' faol erkak o'yinchi - Turkmenov Xasan
 Eng yoshi ulug' faol ayol o'yinchi - Xafizova Zulfiya
 Eng yaxshi darvozabon - Toshpulatov Quvondiq
 Eng yaxshi ximoyachi - Maxmadaliev Vaxob
 Eng yaxshi xujumchi - Mutalov Alisher



XAKAMILAR

Xodjanov Aziz
 Odilova Feruza
 Mansurov Bobir
 Dinmuxammedov Aktam
 Norqobilov Muxiddin

Universitet matbuot xizmati



UMUMIY NATIJALAR MEDALLAR BO'YICHA QUYIDAGIChA ANIQLANDI

| № | Terma jamoalar | Oltin | Kumush | Bronza | Egallagan | o'rni |
|----|------------------|-------|--------|--------|-------------|-------|
| 1. | QXM fakulteti | 3ta | 5ta | 2ta | I -o'rin | |
| 2. | GM fakulteti | 3 ta | - | 2ta | II -o'rin | |
| 3. | Rektorat jamoasi | 1 ta | 1 ta | 2 ta | III -o'rin | |
| 4. | GIM fakulteti | 1 ta | - | 2ta | V -o'rin | |
| 5. | SXTEB fakulteti | 1ta | - | - | IV -o'rin | |
| 6. | GTQ fakulteti | 1 ta | - | 1ta | VI -o'rin | |
| 7. | QSXET fakulteti | 1 ta | 1ta | 1ta | VII -o'rin | |
| 8. | YeRB fakulteti | - | 4ta | 2ta | VIII -o'rin | |